



Possibilities of implementing social cooperation in the professional training process

Ilkhom KHURAMOV¹

Termiz State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received May 2023
Received in revised form
15 June 2023
Accepted 25 June 2023
Available online
15 July 2023

Keywords:

social cooperation,
production enterprises,
social relations,
interests,
community,
professional education,
specialist personnel.

ABSTRACT

This article creates the need to highlight the specific side of the problem – the psychological aspects of social cooperation in professional educational institutions. Establishing social cooperation between educational institutions and production enterprises is one of the most pressing issues today.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss5/S-pp255-258>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kasbiy tayyorgarlik jarayonida ijtimoiy hamkorlikni amalga oshirish imkoniyatlari

ANNOTATSIYA

Kalit soʻzlar:

Ijtimoiy hamkorlik,
ishlab chiqarish
korxonalariga,
ijtimoiy munosabatlar,
manfaatlar,
jamoalari,
professional taʼlim,
mutaxassis kadrlar.

Ushbu maqolada professional taʼlim muassasalarida ijtimoiy hamkorlik tub mohiyatini yoritishda muammoning oʻziga xos tomoni-psixologik jabhalarini yoritish zarurati, taʼlim muassasasi bilan ishlab chiqarish korxonalarini oʻrtasidagi ijtimoiy hamkorlikni yoʻlga qoʻyish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanishi haqida soʻz boradi.

¹ Teacher, Termez State University. E-mail: khuramovilxom@gmail.com

Возможности реализации социального сотрудничества в процессе профессионального обучения

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

общественная кооперация,
производственные
предприятия,
общественные отношения,
интересы,
общность,
профессиональное
образование,
кадры специалистов.

Данная статья создает необходимость выделения специфической стороны проблемы – психологических аспектов социального сотрудничества в профессиональных образовательных учреждениях. Налаживание социального сотрудничества между учебными заведениями и производственными предприятиями является сегодня одним из наиболее актуальных вопросов.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim sohasining asosini tashkil etuvchi shaxs, davlat va jamiyat, fan, uzluksiz ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi aloqadorlik ham aynan ijtimoiy hamkorlik jarayonini tashkil etish uchun bir ko‘rsatma sifatida o‘rin tutadi.

Har bir yangi boshlanayotgan ishning natijasini belgilashda oldindan rejalashtirish, qo‘yiladigan maqsad va unga qadar amalga oshirilgan ishlarni taqqoslash muhimdir. Shu bilan bir qatorda ishning natijasini belgilashning yana bir tomoni undan faoliyat yuritish ko‘zda tutilayotgan shaxslarning ijtimoiy hamkorlik to‘g‘risidagi tasavvurlari timsollaridir. Ta’lim muassasasi bilan ishlab chiqarish korxonalarini o‘rtasidagi ijtimoiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Biz tomondan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida faoliyat olib borayotgan professional ta’lim pedagog va muhandis-pedagoglarning ijtimoiy hamkorlikni tashkil etish va u bilan bog‘liq ayrim holatlar to‘g‘risidagi fikrlarini aniqlash maqsadida anketa so‘rovi o‘tkazildi.

Ijtimoiy hamkorlik ta’lim muassasasi uchun haqiqatdan quyidagi bir qator ko‘rsatkichlar bo‘yicha ham manfaatlari o‘shini aytish mumkin:

- ta’lim mazmunan o‘zgaradi;
- mutaxassis kadrlarni tayyorlash ishlab chiqarish jarayoni bilan uyg‘unlashuviga olib keladi;
- mutaxassis kadrlarni kollejdagi o‘qishi davomida ishlab chiqarish amaliyotini o‘zidayoq ishchi o‘rinlari bilan ta’minlashga erishiladi;
- professional ta’limning mutaxassis kadrlarni ishlab chiqarish korxonalariga sifatli tayyorlab berishi tufayli nufuzga ega bo‘la boshlaydi;
- professional ta’limning jamiyatdagi mavqei osha boshlaydi;
- mutaxassis kadrlar tayyorlash sifati hamda pedagog va muhandis-pedagoglarning shaxsiy mas’uliyati ortadi va h.k.

Pedagog va muhandis-pedagoglarning “Ijtimoiy hamkorlikning ta’lim jarayoniga ta’siri” bo‘yicha bildirgan mulohazalari ancha yuqori ko‘rsatkichlarga da’vogarlik qildi. Ularning barchalari ijtimoiy hamkorlik ta’lim jarayoniga 100 foiz ijobiy ta’sir etishini qayd etganlar. Albatta bunday ko‘rsatkich ta’lim muassasasidagi pedagog va muhandis-pedagoglarni ta’lim bilan ishlab chiqarish korxonasi o‘rtasida aloqani o‘rnatish bugungi kun uchun eng maqbul yo‘l ekanligini anglab yetganliklaridan dalolat beradi.

Kasb-hunar ta’limida ijtimoiy hamkorlikni tashkil etish va amalga oshirishning quyidagi bosqichlari ishlab chiqildi.

1. Tayyorgarlik bosqichi. Tayyorgarlik bosqichining asosiy maqsadi professional ta'lim hal etishi zarur bo'lgan vazifalar doirasini aniqlashdir. Buning uchun quyidagi savollarga javob olish tavsiya etiladi:

– ijtimoiy hamkorlik tizimi deganda nimani tushunish kerak?

– ta'lim muassasasining qaysi muammolarini ijtimoiy hamkorlik tizimini rivojlantirish orqali hal etish mumkin?

– mazkur ta'lim muassasasi uchun kimlar asosiy hamkor bo'la oladilar?

– ta'lim muassasasi o'zining mavjud va kelgusidagi hamkorlariga nima bera oladi?

Barcha savollarga javob berish uchun mavjud va kelgusidagi hamkorlarni topish, ularning faoliyatini tahlil qilish, ular manfaatlarini aniqlash lozim. Ta'lim muassasasi iqtisodiyotning qaysi sohasi uchun kadrlar tayyorlasa, ana shu sohada tahlil o'tkazish kerak. Mazkur sohaga qaysi korxonalar, tashkilot, muassasalar mansubligi, ularning mintaqa uzoq muddatli rivojlanishi rejasidagi o'рни va salohiyati to'g'risidagi axborotni o'rganib chiqishni taqozo etadi.

Ijtimoiy hamkorlar turli toifalari bilan hamkorlikning barqaror tizimini shakllantirishdek murakkab va sermehnat ishni bajarish zarurligini ta'lim muassasasining butun jamoasi chuqur tushunib yetishi birinchi bosqichning muhim vazifasidir.

2. Tashkiliy bosqich. Mazkur bosqich maqsadi – ijtimoiy hamkorlar bilan barqaror aloqalarni o'rnatishdir. Ushbu bosqichda hamkorlik to'g'risida shartnomalar tayyorlanadi, ijtimoiy hamkorlarning turli toifalari bilan o'zaro harakatlar texnologiyasi ishlab chiqiladi, ya'ni bo'lg'usi ijtimoiy hamkorlik tizimining elementlari yaratiladi, ta'lim muassasasi ijtimoiy hamkorlarining doirasi shakllantiriladi.

Ikkinchi bosqichning eng muhim vazifasi – mehnat bozorini baholashdir. Ta'lim muassasasi mutaxassislari bu faoliyatni turli axborot manbalarini, shu jumladan davlat va idoraviy statistika, mehnat bo'limlari, ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli organlar ma'lumotlarini, tadqiqot markazlari ishlanmalarini, o'z tadqiqotlari va so'rovlari natijalarini jalb etgan holda, amalga oshirishlari lozim.

Ish beruvchilarning kadrlar malakasiga bo'lgan talablarini, bitiruvchilarning bilim va ko'nikmalari mehnat bozori ehtiyojlariga nechog'li muvofiq kelishini eng oddiy sotsiologik usul va uslublarni qo'llagan holda ta'lim muassasasining o'zi baholashi mumkin (anketa tarqatish, intervyular olish).

Ijtimoiy hamkorlik bo'lajak tizimining asos soluvchi elementlari barpo etilishi – ikkinchi bosqichning eng asosiy yakuniy natijasi bo'lmog'i lozim.

3. Ijtimoiy hamkorlikni tizimli hosil qilish bosqichi.

Mazkur bosqich maqsadi – ijtimoiy hamkorlikning mavjud va barpo etilayotgan elementlarini yagona tizimga birlashtirishdir. Buning uchun lavozim yo'riqnomalari aniqlashtirilishi, professional ta'lim ish rejasiga ijtimoiy hamkorlikka oid chora-tadbirlar kiritilishi lozim. Ijtimoiy hamkorlik jarayoni barcha ishtirokchilarini birlashtiradigan, ular o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turadigan tashkiliy tuzilmalarni shakllantirish – ta'lim muassasasi faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylanib boradi.

Jumladan, ta'lim muassasasi, ishlab chiqarish korxonalari, kasaba uyushmalari, ta'limni boshqarish organlari, mehnat organlari va jamoatchilik organlari vakillarini o'z ichiga olgan Vasiylik kengashlari tuzilishi shulardan biridir. Ushbu kengashlar faoliyati professional ta'lim Vasiylik kengashi to'g'risidagi Nizomga binoan amalga oshiriladi.

Ijtimoiy hamkorlik tizimini shakllantirishning yakunlovchi, uchinchi bosqich yakunlari quyidagicha bo'lishi kerak:

- ijtimoiy hamkorlar bilan ish olib borish borasidagi vazifalar, xodimlarining lavozim yo'riqnomalari;
 - ijtimoiy hamkorlik borasidagi chora-tadbirlar bilan boyatilgan ta'lim muassasasi ish rejasi;
 - o'quvchilar amaliyoti, o'qituvchilar stajirovkasi, Vasiylik kengashining faoliyati, o'quv-uslubiy hujjatlarni kelishib olish, bitiruvchilarni ishga joylashtirish to'g'risida shartnoma, nizomlarni o'z ichiga olgan ijtimoiy hamkorlikka taalluqli namunaviy hujjatlar;
 - doimiy faoliyat yurituvchi Vasiylik kengashi;
 - ijtimoiy hamkorlarning turli toifalari bilan barqaror hamkorlik.
- Oxirgi bosqichda erishilgan natijalar doimiy ravishda saqlanib va mustahkamlanib borishi kasb-hunar kollejlari uchun juda zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. U.A. O'rinov, Ta'lim jarayonidagi ijtimoiy hamkorlik bosqichlari // Kasb-hunar ta'limi. –Toshkent, 2009. -№4. -B.25-26.
2. U.A.O'rinov, Y.Arslanov, Kasb – hunar kollejlarida ijtimoiy hamkorlik // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2008. – №6. -B.107-110.
3. U.A.O'rinov, Ijtimoiy hamkorlik asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni samaradorligini aniqlash // Oliy va kasb-hunar ta'limi tizimi uchun zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratish hamda sifatini baholash muammolari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to'plami. –Buxoro: BOOESTI, 2010. -B.455-457.
4. D.O.Himmataliev, O'quv – tarbiya jarayonida o'quvchilarning kasbiy madaniyatini milliy qadriyatlar asosida shakllantirish: Avtoref. dis....ped.fan.nom. – T.: TDPU, 2003. – 24 b.
5. Эрик Де Кортте и Ливен Фершаффел. Высокоэффективное обучение: экспериментальный проект соединения теории и практики // Перспективы: сравнительные исследования в области образования. М.: ООО ИНПРАЙС, 2003. – №4. – Б.121.
6. Чистякова С. Н. Педагогическая поддержка профессионального самоопределения школьников. – М.: Новая школа, 2004. – 49 с.